

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Ashurov	
Yosh voleybolchilarning koordinatsion qobiliyatlarini oshirishda uslubiy yondashuvlar	106
T.A.Julboyev	
Kredit-modul tizimida anorganik kimyo o'quv fanida mustaqil ta'limdan esse yozish ko'nikmasini rivojlantirish.....	111
C.Ф.Джафарзода	
Некоторые парадоксы несоответствий результатов тестов "остаточных знаний" студента и учащихся в вузе в контексте выбора дидактических целей ценностно-содержательного управления временем.....	115
A.M.Maxmudov	
Yosh futbolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish	124
I.U.Nurmetova	
Dzyudo bilan shug'ullanuvchi qizlarni tezkorlik sifatlarini rivojlantirishda texnik usullardan foydalanish	129
U.R.Radjarov	
Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi 1- 2-sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarini milliy harakatli o'yinlar orqali rivojlantirishni didaktik ahamiyati	136
G.K.Yakubova, M.Mashrapova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'sish va rivojlanish qonuniyatlari tahlili	141
B.A.Rahimov	
Yosh voleybolchilarni zamonaviy sport mutaxassisligiga yo'naltirishning samaradorligi	148
N.V.Nosirov	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarida metodik kompetentsiyalarni rivojlantirishning muammolari va innovatsion usullari	154
F.I.Sharipova	
The development of reading literacy among future nurses	158
L.X.Bektursinova	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik imijni shakllantirishning ayrim masalalari.....	164
K.X.Abduvaliyeva	
Некоторые аспекты интеграции заданий по химии в процессе обучения химии	169
R.M.Ubaydullayev	
Bo'lajak o'qituvchilarning jismoniy madaniyatini sport pedagogikasi vositasida rivojlantirish texnologiyasi	173
M.M.Yuldashov	
Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish texnologiyalari.....	180
M.A.Suyunova	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilada maktabgacha yoshgdagi bolalarda ekologik dunyoqarashni shakllantirish usullari.....	185
M.X.Tillavoldiyeva	
Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy taraqqiyot o'rtasidagi aloqadorlik muammolari	190

IQTISODIYOT


O.Sh.Valiev	
The nexus between fdi net inflows and doing business index: analysis from Uzbekistan	194

FALSAFA

A.A.Qambarov	
Qur'on oyatlari hamda hadislarda keltirilgan "shukronalik" tushunchasining ijtimoiy-falsafiy tahlili	199
S.U.Yuldashev	
Jamiyatni ilmiy boshqarishning institutsional va funksional jihatlari	203
G.N.Navro'zova	
Shoh Naqshbandni tavsiflovchi yangi manbaa	207
A.N.Sanaqulov	
Ta'lim tizimida virtual reallikdan foydalanish istiqbollari	211



UO'K: 681.142.37:32{575.1}

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA IJTIMOY TARAQQIYOT O'RTASIDAGI
ALOQADORLIK MUAMMOLARI****ПРОБЛЕМА ВЗАИМОСВЯЗИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И СОЦИАЛЬНОГО
РАЗВИТИЯ****PROBLEMS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN DIGITAL TECHNOLOGIES AND
SOCIAL DEVELOPMENT****Tillavoldiyeva Matlubaxon Xoldarboyevna** 
Toshkent davlat pedagogika universitati dotsenti**Annotatsiya**

Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omillari va sabablari, rivojlangan mamlakatlar tomonidan yaratilayotgan yuksak texnologiyalar tahlil etiladi. Shuningdek, uning insonlar, millatlar, xalqlar va mamlakatlar hayotiga o'tkazayotgan ijobiy ta'sirlari bilan birgalikda salbiy xususiyatlari ham mavjudligiga e'tibor qaratiladi. Qolaversa, hozirgi kunda jahonda yuz berayotgan global o'zgarishlar, raqamli texnologiyalarning jadallashuvi kelgusida mexanik hamda jismoniy mehnat o'rnini egallashi mumkinligiga o'rin ajratiladi.

Аннотация

В данной статье анализируются основные факторы и причины быстрого и глубокого проникновения цифровых технологий в нашу жизнь, а также передовые технологии, созданные развитыми странами. Также уделяется внимание их отрицательным сторонам наряду с положительным влиянием на жизнь людей, наций, народов и стран. Кроме того, глобальные изменения, происходящие в мире сегодня, ускорение цифровых технологий, в будущем придуцие на смену механическому и физическому труду.

Abstract

This article analyzes the main factors and reasons for the rapid and deep penetration of digital technologies into our lives, as well as the advanced technologies created by developed countries. Also, attention is drawn to the presence of negative features along with its positive effects on the life of people, nations, peoples and countries. In addition, the global changes taking place in the world today, the acceleration of digital technologies, will take the place of mechanical and physical labor in the future.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiya, jamiyat, iqtisodiy-siyosiy, ehtiyoj, ma'naviy, barkamollik, taraqqiyot, separatizm, yuksak texnologiyalar, intellektual salohiyat, fan, texnika, obyektiv, islohot, milliy taraqqiyot, barqaror taraqqiyot.

Ключевые слова: Цифровые технологии, общество, экономико-политическое, потребность, духовное, совершенство, развитие, сепаратизм, высокие технологии, интеллектуальный потенциал, наука, технология, цель, реформа, национальное развитие, устойчивое развитие.

Key words: Digital technology, society, economic-political, need, spiritual, perfection, development, separatism, high technologies, intellectual potential, science, technology, objective, reform, national development, sustainable development.

KIRISH

Insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashash bosqichiga o'tdi. Raqamli texnologiyalar jamiyati nomi bilan atalayotgan bu sharoitda iqtisodiy- siyosiy, ma'naviy-madaniy-axloqiy aloqalar intensiv tus olmoqda. Jamiyat yuksak darajada rivojlanmasin, uning ehtiyojlari ham shunchalik oshib boradi. [1].U bugun kechagiga qaraganda, ertaga esa, undan-da ko'proq yaxshi yashashga, moddiy-ma'naviy barkamollikka erishishga va farovon hayot kechirishga intiladi. Shuning uchun ham, ayniqsa, bugungi kunda o'rganilayotgan va taxlil etilayotgan masala yuzasidan-uning jamiyat hayotining turli sohalaridagi ijobiy va salbiy ta'siri va asosiy xususiyatlariga doir turli yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot olib borilayotganligi kuzatish mumkin.

Raqamli texnologiyalar orqali jamiyatni raqamlashtirish ya'na shunday jarayonki, uni chuqur o'rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma'naviyatini tog'dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga boshqaruvsiz qayiqni topshirib qo'yish bilan barobardir deya ta'riflash uchun mubolog'a bo'lmaydi. Buning uchun, eng avvalo, bizning fikrimizcha, "raqamli texnologiya" tushunchasini, uning ma'no-mazmunini tushunib yetish zaruriyati yuzaga keladi.

Ko'rinib turibdiki, bugun raqamli texnologiyalar kirib bormagan soha qolmadi. Qaysi bir jabhani olmaylik qulaylik, oshkoralik va tezkorlik bobida zamonaviy raqamli texnologiyalar yangilanishlarining muhim omiliga aylanib bormoqda.

Buni anglab yetgan **Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev** raqamlashtirish siyosatiga e'tibor qaratib, amalga oshirilayotgan islohotlarda haqiqiy raqamlashtirilgan jamiyatni barpo etishga alohida urg'u qaratdi.[1]

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYASI

Maqolaga doir jaxon manbalarini o'rganish, atrofimizdagi real voqealikni kuzatish-raqamlashtirishning jahon mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha ekanligini ko'rsatmoqda. Bu hol dunyo mamlakatlarining siyosiy, iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari qanday ekani bilan bog'liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o'rganish lozim.

Bu hodisani chuqur o'rganmay turib, unga moslashish, uning yo'nalishini tegishli tarzda o'zgartirish mumkin emas. Ilmiy adabiyotlarda, turli tahliliy hisobot va davriy nashrlarda raqamli texnologiyalar mavzusi turli yo'nalishlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Raqamli texnologiyaning mazmunini tahlil qilish bilan birga, mualliflar uning samarasi va istiqboldagi oqibatlarini bashorat qilishga xam harakat qiladi.

Ko'plab tadqiqotlarda uni talqin qilishda raqamli texnologiya nima, uning chegaralari qanday, raqamli texnologiyaning asosiy ko'rsatkichlari qanday elementlardan tashkil topishi kerak, raqamli texnologiyalarga qanday omillar sabab bo'lmoqda, raqamlashtirishdan maqsad nima, uning oqibatlari nimaga olib keladi? degan asosiy savollarga yo'naltirilganligini qayd etishimiz lozim. Jumladan, raqamlashtirish, axborotlashtirish jarayonlari bilan bog'liq muammolar bilan shug'ullangan olimlardan: **Ye.Tofler, M.Castels, O.I.Shkaratana, F.Vebster, A.Chernov, R.Abdiyev, I.Melyuxinning** tadqiqot lari axborotning atributiv va funktsional xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan .

Hozirgi davrda axborot oqimi nazariyasi ilmiy-uslubiy jihatdan **N.K.Shenon, P.Xantington** kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. **A.Toynbi, A.Shpengler, Fukuyama** kabi o'nlab tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida globallasuv va raqamlashtirish, dunyoning raqamli-mafkuraviy tebranishlari, turli jamiyatlararo, guruhlararo ziddiyatlar nazariy jihatdan tahlil qilindi.

Shu urinda tadqiqotchi **A.A.Lutfullayevni** "Zamonaviy dunyoda texnologiya odamlarga misli ko'rilmagan qulaylik bilan muloqot qilish va fikr almashish imkonini beradigan yagona axborot maydonini yaratdi. Biroq, ushbu texnologiyaning foydalari bilan bir qatorda, ma'naviyatga yangi tahdidlar ham mavjud bo'lib, ular yagona axborot sohasida paydo bo'ldi" degan qarashlarini keltirishni o'rinli deb xisoblaymiz.

Jl.B.Shmelkova ta'kidlaganidek, raqamli iqtisodiyotga mos keladigan shaxsning eng muxim xususiyati bu- raqamli texnologiyalarga egalik qilish va ularni kasbiy faoliyatda qo'llashdir. Raqamli axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi nafaqat ishlab chiqarishda, balki insonning kundalik hayotida ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Erkayev "axborot maydoni milliy chegaralarni bilmaydi, uni sun'iy ravishda toraytirish va cheklash mumkin emas", deb ta'kidlaydi .Bundan tashqari hozirgi kunda jahonda yuz berayotgan global o'zgarishlar, raqamli texnologiyalarning jadallashuvi kelgusida mexanik hamda jismoniy mehnat o'rnini robototexnika egallashi mumkinligidan darak bermoqda. Shuning uchun raqamli texnologiya bo'yicha strategiya ishlab chiqish, raqamli ko'nikmalarni ommaviy shakllantirishni ta'minlash dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Har qanday mamlakatda raqamli axborot texnologiyalarining kirib borishi nafaqat iqtisodiyot, balki boshqa sohalardagi munosabatlarga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarning deyarli yarmi XXI asr boshidan beri raqamli texnologiya bilan qamrab olindi va bu aholi hayot sharoitlarining va davlatlar milliy taraqqiyotni sezilarli darajada o'zgarishiga olib keldi.[2]

Maqolaning dolzarbligi va zarurati yuzasidan xorij adabiyotlarini o'rganish taxlilida yuksak darajada taraqqiy qilgan mamlakatlar o'zlarining ulkan intellektual salohiyatlari bilan fan, texnika va texnologiyaning eng zamonaviy turlarini yaratib, ular vositasida mintaqalarda mavjud bo'lgan xom-ashyo resurslarini qo'lga kiritishning eng jirqanch uslublaridan foydalanayotganligi xakidagi karashlarni guvoxi bulganligimizni qayd etishimiz lozim. Ana shu mintaqqa xalqlarini, avvalo, moddiy

jihaddan qaram qilish, hamda bu omil vositasida ularni o'ziga xos ma'naviyatini ham barbod qilish yo'li bilan uning o'rniga o'zlarining ma'naviyatini ommaviylashtirishga bo'lgan urinishlarida namoyon bo'layotganligini ta'kidlash muximdir.

MUXOKAMA VA NATIJALAR

Shuni ta'kidlash joizki, Yangi O'zbekistonni kelgusi ijtimoiy taraqqiyotini ilm- fan, ilmiy, ijtimoiy-gumanitar texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot asosida boshqarish tashkil etadi. Bugunda Xarakterlar strategiyasini amalga oshirishda axborotni yaratish, qayta ishlash, almashish va uzatish texnologiyalariga asoslangan raqamlashtirish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Bunday mamlakatdagi o'zgarishlar xalqimiz xayoti va kundalik turmushida o'zining ifodasini topmoqda. Albatta, bugun zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda ijtimoiy taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz kerakligi ayon bo'lmoqda.

Bu esa kelajakda mamlakatimizdagi ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan demokratik isloxlarni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish imkonini beradi. Shu sababli xam yurtimizda raqamli ta'lim va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish muximligi bejiz emas, albatta. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlarida ifoda etilganidek, Yangilanayotgan O'zbekiston "Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat" degan muhim g'oya negizida barpo etilayotganligini ta'kidlash muximdir. Binobarin, jahon amaliyoti raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiyoti mamlakatning raqobatdoshligini oshirish, katta oqimdagi axborotni to'plash va umumlashtirish, boshqaruvni strategik darajada tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratib berishda asosiy omilga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Shu bois, raqamli axborot texnologiyalari islohotlar jarayonining ochiqligini ta'minlash, davlat va jamiyat o'rtasida samarali axborot almashish mexanizmini o'rnatishda muhim - vosita sanaladi. Ayni paytda hukumat, vazirlik va idoralar, shuningdek, parlament a'zolarining aholi bilan samarali muloqot o'rnatish uchun maxsus virtual qabulxonalarini tashkil etilgani, avvalo, jahon amaliyotiga uyg'un holda sohada qonun hujjatlarini muttasil takomillashtirib borish, yangi qonunlarning mazmun-mohiyatidan keng jamoatchilikni xabardor qilish va ularni amaliyotga samarali tatbiq etishga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, raqamli texnologiyalarning o'zi ba'zida avvaldan ehtimol qilib bo'lmaydigan darajada va shu qadar tez rivojlanmoqdaki, hatto umumiy ma'noda ham amaliy jihatdan ularning tarqalishi oqibatlarini oldindan bilish juda murakkab va ko'p holatlarda esa buning deyarli imkoni yo'q. Agar raqamli texnologiyalarni jarayonlarini prognozlash yoki rejalashtirish istiqbolini o'rta va uzoq muddatga uzaytirishga harakat qilinsa, bu noaniqlik darajasi yanada ortib boradi.

O'z-o'zidan "raqamli texnologiya" tushunchasi aniq belgilangan yo'nalishga ega bo'lgan hamda qandaydir boshlang'ich holatdan aniq yakuniy holatga olib keladigan qat'iy ko'rsatmalarni o'z ichiga olmaydi, balki ana shu ko'rsatmalarni ishlab chiqish yo'nalishlarini belgilab beradi.

Zamonaviy raqamli axborot-kommunikatsiya vositalarining qo'llanilishi hisobiga moliyaviy, tijorat va davlat xizmatlaridan keng kamrovda hamda qulay tarzda foydalanish imkoniyati vujudga keldi. Raqamli texnologiyalarning paydo bo'lishi statistik xizmatlardan keng foydalanishning yangi istiqbollari keltirib chiqaradi. Ularning takomillashib borishi tufayli ma'lumotlar yig'ishning an'anaviy vositalari eskirib borayotgani tobora ko'rinib kolmokda. Bu, o'z navbatida, zamonaviy usullardan foydalanishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda axborot va bilim ijtimoiy taraqqiyotining asosi bulib, unga an'anaviy tushunchalar va modellar qo'llanilmaydi. Bugun sir emaski, dunyo miqyosida zamonaviy texnologiyalar asosida jamiyatni raqamlashtirish va aloqa vositalarining takomillashuvi milliy chegaralarni omonat qilib qo'yimoqda. Mamlakatimizda yangi Uyg'onish davri, ya'ni uchinchi Renesans masalalarini strategik vazifa sifatida milliy g'oyadarajasiga ko'tarilayotgan ekan, ana shunday asosiy strategik vazifalardan biri isloxlarni yanada chuqurlashtirish orqali milliy barkarar taraqqiyotga erishish, uning asoslarini shakllantirish va uni rivojlantirish har qachongidan ham o'ta dolzarb muammolardan biriga aylanayotganligini ta'kidlash lozim. [3]

Uning dolzarbligi raqamlashtirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, va ma'naviy hayotda vujudga kelgan va keladigan bir qator islohotlarni amalga oshirish

vazifasining qay darajada ijtimoiy-falsafiy jihatdan ishlab chiqilishiga ham bevosita bog'liqdir..

Shu bois, mazkur yo'nalishdagi qator muhim ahamiyatga molik masalalarni tadqiq etish, xususan, raqamlashtirishni jamiyat hayotidagi o'rnini aniqlash, bunda raqamli avlod ma'naviy faolligini oshirishda ijtimoiy omilning rolini belgilash, u borada mavjud muammolarni hal qilish yo'llarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berish hozirgi kunning o'ta murakkab va dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari hozirgi kunda jahonda yuz berayotgan global o'zgarishlar, raqamli texnologiyalarning jadallashuvi kelgusida mexanik hamda jismoniy mehnat o'rnini robototexnika egallashi mumkinligidan darak bermoqda. Shuning uchun raqamli texnologiyalar bo'yicha strategiya ishlab chiqish, raqamli ko'nikmalarni ommaviy shakllantirishni, raqamli savodxonlikni esa ta'minlashni dolzarb masalalardan biriga aylantiradi. Maqolaga doir masalani o'rganish va tadqiq etishda, XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasida ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi o'zaro ta'sir shuqadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan chetda qola olgan birorta ham davlat yo'q, deb to'la ishonch bilan aytish mumkinligiga urgu berish lozim.

Hattoki, xalqarotashkilotlardan uzoqroq turishga intilayotgan, ularga a'zo bo'lishni istamayotgan mamlakatlar ham bu jarayondan mutlaqo chetda emas. Albatta, rivojlangan mamlakatlar tomonidan yaratilayotgan yuksak texnologiyalar, ta'lim- tarbiya tizimi, fan sohasidagi kashfiyotlar o'zi yaratilgan joydagi tub xalq ma'naviyati zaminiga qurilgan bo'lib, o'ziga xos mentalitetni aks ettiradi. Shuningdek, yetakchi mamlakatlar amaliyotida raqamli transformatsiya yangi texnologiyalarnijoriy etilishini qo'llab-quvvatlashning tarmoqli tamoyili ko'zda tutiladi.[4]

Raqamli texnologiyalarni davlatlarning, turli millatning mustaqil sub'ekt sifatida saqlanib qolish jarayoniga o'tkazayotgan salbiy ta'siri bugunning o'zida sezila boshladi. Biz buni bugungi kun real voqealidagi amaliyot orqali guvoni bo'lmoqdamiz. Istiqbolda bu jarayonning oldi olinmas ekan, u millat taraqqiyotini yanada chuqur inqirozga olib boradi –deganidir. Bu jarayonning oldini olish, hech bo'lmaganda uning oldiga to'siq qo'yish yo'llari, imkoniyatlari va vositalarini izlab topish hamda ulardan samarali foydalanish strategiyasini ishlab chiqish barcha fan yo'nalishidagi tadqiqotchilar oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Yuqoridagi qarash va tasavvurlardan kelib chiqib, quyidagicha taklif-muloxazalarni qayd etish mumkin deb xisoblaymiz:

XULOSA

Birinchidan-Raqamli texnologiyalar jarayoni tobora halqlar va millatlarning turmushiga chuqurroq kirib bormoqda va buning oqibatida jamiyat raqamlashtirilmoqda. O'zbekistonda shu munosabat bilan jamiyat nafaqat axborotlashgan, balki raqamli texnologik jamiyat bo'lib bormoqda xam. Oqibatda xalqlar va millatlar xayotiga texnika, fan va texnologiya yutuqlari bilan bir qatorda, rivojlangan mamlakatlarning axloqiy va ma'naviy qadriyatlar ham kirib kelmoqda.

Buning natijasida milliy dunyoqarash va millat qadriyatlariga munosabat masalasi ham o'zgarib bormoqda. Ana shu jarayonning oldi olinmas ekan, istiqbolda milliy taraqqiyot xavf ostida qolishi va pirovard natijada millatlar taqdiri tanazzulga yuz tutishi mumkinligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ikkinchidan - Obyektiv tan olish kerak- bugungi kunda har qaysi davlatning raqamli taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq kishilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va xududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib bormoqdaki, biror mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmaganligini tushunish, anglash qiyin emas. Demak, bu jarayon Raqamlashtirilayotgan a Yangilanayotgan O'zbekistonga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild.– Toshkent. O'zbekiston, 2017 yil
2. Tillavoldiyeva M. Raqamli texnologilar sharoitida ijtimoiy fanlarni o'qitilishining ayrim jixatlari. Toshkent-2023yil. TAQU. Ilmiy konferentsiya materiallari.
3. Otamuratov S.A. Axborot xurujlariga qarshi kurashning o'ziga xos jihatlari. // Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami. –Toshkent: 20 noyabr 2019 yil. -170 b.
4. Vasilenko L. Мещерякова N. Социология сифрового общества. Томск – 2021 yil.